
TOSHLOQNING BARAKA XIRMONI YUKSALMOQDA

2023 yil g'alla hosili uchun tumanda 171 ta fermer xo'jaliklarining 5070 hektar maydoniga baraka urug'i qadalgan bo'lib, joriy dehqonchilik yilida o'rtacha hosildorlikni 80 syentnerdan oshirish orqali 40 ming 500 tonna boshqoli don yetishtirish rejalahtirilgan.

Shu maqsadda g'allaning "Vexa", "Grom", "Aleksevich", "Asr" va "Bezostaya-100" navlaridan ekildi. Belgilangan barcha agrotexnik jarayonlar o'z vaqtida bajarildi.

Ayni kunlarda tumanda g'alla o'rim-yig'im mavsumi uyushqoqlik bilan olib borilmoqda.

-45 hektar yerga urug'lik "Bezostaya" navini ekib, mo'l hosil yetishtirildi,-deydi tumandagi "Boymat Shermatov saxovati" fermer xo'jaligi rahbari Jasurbek Shermatov. - Maqsadimiz - har hektar yerdan 100 syentnerdan hosil olish. Keyingi yillarda ilmiy-innovasion g'oyalar faoliyatimizga keng tatbiq etilayotgani samarasi sifatida hosildorlik va manfaatdorligimiz salmog'i yildan-yilga ortib bormoqda.

2023-06-10 09:55:26